

ABDULLA AVLONIYNING XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MA'RIFIY HARAKAT TARIXIDAGI O'RNI

Abdullayeva Arofat Nasrullo qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti,
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Abdullayevairoda331@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785406>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistonda kechgan ma'rifiy harakat tarixida Abdulla Avloniyning tutgan muhim o'rni yoritiladi. Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri sifatida xalqni savodli qilish, milliy ong va madaniyatni yuksaltirish, zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish yo'lida samarali faoliyat olib borgan. U yangi usul maktablarini tashkil etib, darsliklar yaratgan, pedagogik va axloqiy g'oyalarni ilgari surgan. Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" kabi asarlari orqali yosh avlodni ilm-fan, vatanparvarlik, ma'naviy poklik ruhida tarbiyalashni maqsad qilgan. Shuningdek, uning publitsistik va teatr faoliyati ham Turkistonda ma'rifiy islohotlarning keng yoyilishiga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy faoliyati XX asr boshlarida milliy uyg'onish va ma'naviy taraqqiyot jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u Turkiston ma'rifiy harakatining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, jadidchilik harakati, Turkiston, ma'rifiy harakat, yangi usul maktablari, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, axloqiy tarbiya, pedagogik meros, XX asr boshlarida ma'rifat.

Аннотация. В данной статье освещается важная роль Абдуллы Авлони в истории образовательного движения в Туркестане в начале XX века. Как один из видных представителей движения Джадидов, Абдулла Авлони эффективно работал над просвещением народа, повышением национального самосознания и культуры, а также формированием современной системы образования. Он организовывал новые школы, создавал учебники и выдвигал педагогические и моральные идеи. Авлони стремился воспитать молодое поколение в духе науки, патриотизма и духовной чистоты посредством своих произведений, таких как «Турецкая роза или нравственность», «Первый учитель» и «Второй учитель». Его журналистская и театральная деятельность также способствовала широкому распространению образовательных реформ в Туркестане. Деятельность Абдуллы Авлони стала важной составляющей процесса национального пробуждения и духовного развития в начале XX века, и он внес неоценимый вклад в развитие образовательного движения в Туркестане.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, движение Джадидов, Туркестан, движение Просвещения, школы нового метода, национальное возрождение, реформа образования, нравственное воспитание, педагогическое наследие, Просвещение начала XX века.

Abstract. This article highlights the important role played by Abdulla Avloni in the history of the educational movement in Turkestan at the beginning of the 20th century. As one of the prominent representatives of the Jadid movement, Abdulla Avloni effectively worked to educate the people, raise national consciousness and culture, and form a modern education system. He organized new schools, created textbooks, and put forward pedagogical and moral ideas. Avloni aimed to educate the younger generation in the spirit of science, patriotism, and spiritual purity through his works such as "Turkish Rose or Morality," "First Teacher," and "Second Teacher." His journalistic and theatrical activities also served to widely spread educational reforms in Turkestan. Abdulla Avloni's activities were an important component of the process of national awakening and spiritual development at the beginning of the 20th century, and he made an invaluable contribution to the development of the Turkestan educational movement:

Keywords: *Abdulla Avloni, Jadid movement, Turkestan, enlightenment movement, new method schools, national revival, educational reform, moral education, pedagogical heritage, enlightenment at the beginning of the 20th century.*

Kirish. Yurtimiz tarixida ma'rifatparvar, kelajak avlodni ham ilimli qilib voyaga yetkazishni niyyat qilgan ziyolilar salmog'i ko'p. Ular o'zlari eng avvalo ilim olib, so'ngra atrofdagi insonlarga ayniqsa, bolalarga bilim tarqatish, ta'lim jarayonlarini takomillashtirib, mukammal darsliklar yaratish ishtiyoqida bo'ldilar. Bu insonlar bir g'oya ostida birlashib, xalqimizning ma'naviy boyliklarini tiklash, zamonaviy ta'lim dasturlarini qabul qilib, ta'lim jarayonlariga tatbiq etish ishlarini boshlab berishdi. Bu harakat namoyondalari jadidchilik harakat deb tarixga kirdi. "Jadidchilik" ning asosida jaded so'zi yotadi. "Jadid" ning ma'nosi "yangi" demakdir. Mana shunday insonlardan biri Abdulla Avloniy bo'lib, o'zbek adabiyoti, noshirlik ishi, yangi usul maktablarini ochish va ularga darsliklar yaratish, teatr truppasida asarlarni sahnalashtirish kabi ishlarni bajari tariximizda o'chmas iz qoldirdi. Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan. Otasi hunarmand bo'lib farzandining ilim olishiga katta e'tibor bergan. U 1904-yili Mirobodda usuli jadid maktabini ochdi. Maktabni davr talabi bilan mos ravishda jihozlash, zamonaviy darsliklar va o'quv qurollar bilan taminlashga e'tibor qaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Abdulla Avloniy birinchilardan bo'lib maktabda fizika, kimyo, geografiya, astronomiya kabi fanlarni o'qitishni yo'lga qo'ydi. Chunki bu fanlarni o'zlashtirmasdan turib yetuk kadr, mahoratli pedagog bo'lib yetisha olmasligini bilar edi. Abdulla Avloniy maktab o'quvchilari uchun "Birinci muallim", "Ikkinchi muallim", "Tarix", "Turkiy Guluston yoki axloq" kabi darsliklar yozgan.

Abdulla Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda qo'yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining manzaralari o'z ifodasini topgan. Avloniy truppasida Mannon Uyg'ur tarbiya topgan: truppa bilan Hamza, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov Ruhullo hamkorlikda bo'lgan. Oktyabr inqilobidan keyin xalqqa va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida tushkunlikning paydo bo'lishiga olib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asosida olib borilib, jadidchilik harakati hamda Abdulla Avloniy faoliyati tarixiy-manbaviy yondashuv orqali tahlil qilindi. Ishda qiyosiy-tahliliy va tavsifiy metodlardan foydalanilib, Avloniyning pedagogik, publitsistik va teatr sohasidagi faoliyati o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Shuningdek, uning asarlari va ma'rifiy qarashlari milliy uyg'onish jarayoni kontekstida interpretativ yondashuv asosida yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining eng muhim yo'nalishi bo'lgan yangi usul maktablarini amalda tashkil etgan ziyolilardan biri edi. U XX asr boshlarida Toshkent shahrida jadid maktablarini ochib, eski maktablarda faqat yod olishga asoslangan ta'lim o'rniga o'qib tushunishga, yozishga va fikrlashga asoslangan ta'lim usulini joriy qildi. Bu jadidchilikning amaliy bosqichini kuchaytirgan.

Abdulla Avloniy nomi o'tgan XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatining, ilmiy ozodlik harakatlarida hamda yangi usul maktablarining paydo bo'lishida katta hissa

qo'shdi. 1909-yildan boshlab yetim bolalarni o'qitish va ularning savodini chiqarishda "Jamiyat xayriya" tashkilotining ahamiyati kattadir. Abdulla Avloniyning ma'rifatchilik ishlarida maktabdorlik vazifasi bilan birgalikda, xuddi shu maktab o'quvchilarining tez savod chiqarishida manbaa sifatida xizmat qiluvchi "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomi ostidagi 4 qismni tashkil etuvchi she'riy to'plami maktab darsliklari sifatida o'rtada boshlandi. "Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Rustambek Yusupbekov va boshqalar bilan sheriklikda "Nashriyot" (1916), "Maktab" (1916) shirkatlarini tuzdi. "Taraqqiy", "Shuhrat" (1907), "Osiyo" (1908), "Turon" (1917) gazetalarini chiqardi. 1918-yilda Turkiston Sho'ro hukumatining birinchi gazetasi "Ishtirokiyun"ning tashkilotchilaridan bo'ldi. Haqiqatdan ham, Abdulla Avloniyning faoliyati maktabdorlik bilan bog'liq ekanligi uning jadidchilik faoliyatida amalga oshirilgan islohotlar faol ekanligida va qolaversa, Turkiston o'lkasida boshlangan kutubxona, maktablar, nashriyotlarning Abdulla Avloniy nomi bilan bog'liqligi. Abdulla Avloniy maktablarining gumanistik g'oyalar bilan birgalikda erkin tarbiya asoslangan holda amalga oshirilishi o'quvchilarning tez savod chiqarishida vosita vazifasini o'taydi. U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir. A. Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Siyosatda bo'layotgan yangiliklar hamda jaholat botqog'idan qutulish eng muhim vazifa sanalib, milliy ozodlikka erishning eng maqbul yo'li ma'rifatli xalqni tarbiyalash deya qaralgan. Abdulla Avloniyning asarlari o'zlashtirish uchun qulay, tili sodda, she'riy asarlar namunasida barmoq vaznining mohirona qo'llanilishi o'quvchilar tez o'zlashtirishlari uchun ko'mak vazifasini bajargan. Abdulla Avloniyning xalq kundalik turmushda qo'llaniladigan she'rlar, hikoyalarni milliy ashulalar asosida o'quvchilarga yangi talqinda yetkazish savod chiqarishda yangicha qarashlarni ifodalab berdi. Shu asosida tanqidiy, tahliliy ruhda yaratilgan "Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari", "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari", "Afsus" kabi she'rlari timsolida jamiyat hayotidagi qiyinchiliklar, hodisotlar qalamga olinadi. Bu esa badiiy talqin jihatidan o'zlashtirish uchun qulay, ma'lum bir ma'noda oyna vazifasini o'tagan desak mumkin. Abdulla Avloniy yangi usul maktablarining targ'ibotchisi, shu bilan birgalikda yangi usul maktablarida o'qitish uchun o'quv-darsliklarining estetik jihatdan yaratilishida eng oldi jadidlardan biri edi.

Turkiston o'lkasida XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ahvol tarbiyaning ochilishi va qolaversa ushbu teatrlar sahna asarlarining yaratilishida tashkiliy qobiliyati bilan boshqa jadidchilik vakillaridan ajralib turadi. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatlari asosida yaratilgan sahna asarlarining tub estetik mohiyati, obrazlarning yaratilishi, tomoshabinlar bilan ishlash texnikasi ma'lum bir ma'noda

Abdulla Avloniy nazoratida turgan. Abdulla Avloniy ana shunday vazifalar amalga oshirilishi orqali jamiyat hayotini tanqidiy kulguga tortuvchi “Advokat o‘smir”, “Pinak” nomli komediyalarni yaratish bilan birga Turkiston o‘lkasida amalga oshirilayotgan istibdod tanqid ostiga olinadi. Bunda kichik bir voqealar namunasida ko‘plab yomonliklarning yuzaga kelishi, imtiyozlarning qurilishi, zulm va adolatsizliklar tanqidiy kulgu ostiga olinadi. Bir qaraganda kulguli bo‘lgan voqealarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni kulgu ostida o‘sha davr muhitidan kelib chiqib Turkistonning eskilik ruhiyatida qolib ketishi qalamga olinadi. O‘lkada amalga oshirilayotgan yangiliklar ko‘lamining ahamiyati mana shunday asarlar namunasida yoritib berilgan. “Shoir o‘tmishda ma‘rifat gullarini yurtimizning jaholat botqog‘iga botganida ochishga harakat qilgan”, deya ta‘kidlaydi. Shu ma‘noda shoirning “Ilmga targ‘ib”, “Jaholat”, “Istibdod azarlari”, “Millatga salom” she‘rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan.

1921-yildan Avloniy maktablar ochish, xalqni savodxon qilish, o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish, o‘qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash ishlari bilan shug‘ullandi. U 1923–1924-yillarda Eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlarida mudir, 1924–1929-yillarda Toshkent harbiy maktabida o‘qituvchi, 1930–1934-yillarda O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) da til va adabiyot kafedrasini mudiri, professori.

“Birinchi Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is‘hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma‘rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Turkiston o‘lkasining jadidchilik faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati Abdulla Avloniyning nomi bilan bog‘liqlikni yuzaga keltiradi. Abdulla Avloniy o‘zining yangi usul maktablari va ularning faoliyati Abdulla Avloniy asarlarida obrazlar va timsollari orqali yoritib beriladi. Aytish joyizki, o‘lkada bunyod etilgan yangi usul maktablari, nashriyotlar, teatr birlashmalarining sermahsul faoliyati yurtimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ularning nomlariga hurmat va e‘tibor yanada ortmoqda. Ularning xotirasini abadiylashtirish uchun davlatimiz tomonidan ularning asarlari nashr etilmoqda, ko‘cha va maktablarga ularning nomi berilmoqda. Hayotlari va faoliyati chuqur o‘rganilib, ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begali Qosimov, Milliy uyg‘onish: Jasorat, Ma‘rifat, Fidoilik. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2002-yil.
2. Bahodir Karimov. ”Jadidlar:Abdulla Avloniy”. – Toshkent 2022.
3. M.Xaturlayev. Ma‘naviyat yulduzlari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 2001.
4. Avloniy tanlangan asarlar. 1-jild – Toshkent: Ma‘naviyat, 2006.
5. Hojimetov A., Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent.
6. Aliyev A., Sodiqov Q., O‘zbek tili tarixidan – Toshkent, O‘zbekiston, 1994.

7. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq.
8. "Avloniy" O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
9. "Abdulla Avloniy hayoti va ijodi". Tafakkur.net.

